



MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA ARXIV ISHINING TAKOMILLASHUVI

Xoldarov Shukurillo

Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

+998971642205

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7810335>

ARTICLE INFO

Received: 30th March 2023

Accepted: 07^t April 2023

Online: 08th April 2023

KEY WORDS

Arxiv ishi, korxonalar, muassasa, fond, katalog, idoraviy arxivlar, saqlash birliklari, xizmat ko'rsatish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida yurtimizda hujjatchilik sohasi, xususan, arxiv ishi sohasining taraqqiyoti va unga doir qabul qilingan hujjat, qarorlar, MAFning tarkibi, hujjatlar saqlashi haqida so'z yuritiladi.

O'zbekistonning milliy davlat sifatida rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tishi arxiv ishidagi yangi va istiqbolli islohotlarni belgilab berdi. Arxiv sohasidagi islohotlar 1999-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilgan "Arxivlar to'g'risida"gi qonun va 2004-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishining boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlar asosida amalga oshirilgan. 2010-yil 15-iyunda O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida" yangi qonun qabul qilingan. Qonunda arxiv ishini yanada yaxshilash maqsadida uning asosiy qoidalari belgilab berilgan, arxiv hujjatlariga bo'lgan mulk shakllari, uning saqlash amaliyoti, tartiblari alohida ko'rsatib o'tilgan. Qonunda qayd qilinganidek arxiv hujjatlari xususiy hamda ommaviy mulk shakllarida bo'lishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, davlat korxonalarida, muassasalarida, tashkilotlarida doimiy turgan arxiv hujjatlari va ular tomonidan davlat arxivlari, muzeylari, kutubxonalariga topshirilgan arxiv hujjatlari davlat mulki hisoblanadi hamda mazkur hujjatlar davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, oldi-sotdi yoki mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq bitimlar ob'ekti bo'lishi mumkin emasligi belgilab berilgan.

Qonunda Milliy arxiv fondi to'g'risida umumiy qoidalari ham belgilab berilgan. MAFning tarkibi, arxiv hujjatlarini MAF tarkibiga kiritishdagi tartiblar, tarkibidan chiqarish, MAF ning davlat katalogini yuritish, arxivlarni tashkil etish qoida, tartiblari bayon etilgan.

"Arxiv ishi to'g'risida"gi qonunda shuningdek arxiv ishi sohasidagi davlat boshqaruvi, arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishning asosiy qoidalari belgilab berilgan. Arxiv hujjatlarini asosan idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlari, arxivlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, arxiv hujjatlarini Respublikasidan tashqariga olib chiqish va olib kirish, moliyalashtirish, arxiv ishi sohasida xalqaro hamkorlik, nizolarni hal etish, arxiv ishi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, sotganlik, tarqatganlik uchun javobgarlik qoidalari ko'rsatib o'tilgan.



Xususiy tashkilotlar, korxonalar bo'lmaganligi uchun sobiq tuzim vaqtida nodavlat arxiv fondlari ham yo'q bo'lgan. Shu tufayli ham ilgari O'zbekiston Davlat arxiv fondida faqat davlat muassasalari tashkilotlari, korxonalari va fuqarolarning arxiv fondlari saqlanardi. Lekin mustaqillikka erishish orqali barcha hujjatlar tizimini saqlovi, arxiv ishi hujjatlari ham tartibga solindi va takomillashdi. Arxivlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartiblari, muddati, idoraviy arxivlar tomonidan xizmat ko'rsatish usullari tartibga solina boshladi. Xalqimiz mustaqillik tufayli o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. Istiqlol yillarida jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan tarix fanlari sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu davrda, kommunistik mafkura ta'sirida buzib ko'rsatilgan, ba'zi sahifalari umuman yoritilmagan ona tariximiz mustaqillik sharofati bilan xolisona o'rganilmoqda, haqqoniy tarix bayon etilmoqda. Zero o'zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklashda arxiv hujjatlarining ahamiyati kattadir.

References:

1. I.A. Alimov. Arxivshunoslik. Toshkent: "Tafakkur Bo'stoni"
2. U. Jumayev. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi. Toshkent. "Turon-iqbol" - 2016
3. M.M. Is'hoqov, I.B. Xudoynazarov, "Yordamchi tarixiy fanlar" T.: "Noshir". 2019